

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2021-yilning II- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘i Sh. Shamshidinov ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 3- fevraldagi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–6155-son Farmoni mazmun mohiyati, uning so‘zsiz, sifatli va o‘z muddatida ijrosini ta‘minlash borasida 2021- yilning I yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar hamda statistika idoralari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o‘tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2021-yilning II choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar–iyunida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 20 200,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,6 %ga o‘tdi. YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,7 %ni tashkil qildi.

2021-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 11 011,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 101,1 %ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 11483,5 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,7 %ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **46 059** tani tashkil etib, ulardan **44 178** tasi yoki **95,9** % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2021-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda **3 644** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7,9** trln. so‘mni, 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati **119,0** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **8,3** trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **106,4** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 790,0 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 346,7 mln. AQSH dollari va import – 443,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, Farg‘ona viloyatida jami **3 108,0** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shirish sur‘ati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **109,5** %ni tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatining doimiy aholisi soni 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, 3852,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 32,7 ming kishiga yoki 0,8 %ga o‘tdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,7 %ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 5 923,9 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 60,8 %i yoki 3 604,3 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 39,2 % yoki 2 319,6 mlrd. so'm moliyalashtirildi.